

**QARZ SHARTNOMASI SHAKLIGA RIOYA ETMASLIK
OQIBATLARI**

Zokirjanov Navruzbek Sohibjonovich

Toshkent davlat yuridik universiteti 3-kurs talabasi

zokirjanovnavruzkh@gmail.com

Annotasiya. Nafaqat hozirgi davrda, balkim oldingi paytlarda ham qarz munosabatlari muhim ahamiyatga ega hisoblangan. Chunki ushbu munosabatlarda javobgarlik masalasi, o'zaro ishonch kabi xususiyatlar aks etgan. Ushbu maqolada qarz huquqiy munosabatlarda qarz shartnomasi o'zi nima ekanligi va uning ahamiyati, uning shakliga rioya etmaslik qanday huquqiy oqibatlar keltirib chiqarishi yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: qarz shartnomasi, qarz shartnomasining shakli, qarz shartnomasining taraflari, tilxat.

CONSEQUENCES OF NON-COMPLIANCE WITH THE FORM OF THE LOAN AGREEMENT

Zokirjanov Navruzbek Sohibjonovich

3rd year student of
Tashkent State University of Law

zokirjanovnavruzkh@gmail.com

Abstract. Debt relationships were considered important not only in the present era, but also in the past. Because these relations reflect the issue of responsibility and mutual trust. This article explains what a debt contract is in debt legal relations, its importance, and what legal consequences a non-compliance with its form causes.

Key words: loan agreement, form of loan agreement, parties to the loan agreement, receipt.

Qarz degan tushuncha oldingi paytlardan mavjud hamda bu huquqiy munosabatga deyarli hamma subyekt kirishgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Qarz munosabatlariga subyektlar muhtojlik tufayli kirishishi mumkin, hozirda esa foyda olish vositasi sifatida ham ushbu huquqiy munosabatga kirishayotgani hammaga ma'lum. Demak, qarz huquqiy munosabatlar shak-shubhasiz jamiyatda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolani yozish orqali qarz o'zi nima ekanligi, qarz shartnomasining afzalliklari, qarz huquqiy munosabatlarining xususiyatlarini tushunish mumkin bo'ladi. Avvalo, ushbu maqolaga batafsil to'xtalishdan oldin, qarz shartnomasi tushunchasiga e'tibor qaratsak. Qarz shartnomasiga Fuqarolik kodeksining 732-moddasiga muvofiq, qarz beruvchi bo'lgan bir taraf, qarz oluvchi bo'lgan ikkinchi tarafga pul yoki turga xos alomatlari bilan belgilangan boshqa ashylarni mulk qilib beradi, qarz oluvchi esa qarz beruvchiga bir yo'la yoki bo'lib bo'lib, o'shancha summadagi pulni yoki qarzga olingan ashylarning xili, sifati va miqdoriga baravar ashylarni (qarz summasini) qaytarib berish majburiyatini oladi deb ta'rif berilgan. Demak, qarz shartnomasini faqat pul summasi yoki ashylar topshirilgan paytdan boshlab kuchga kiradigan va shu paytdan tegishli majburiyatlar kelib chiqadigan an'anaviy real shartnomada deb hisoblay olamiz. Shuningdek qarz berish shartnomasi bir tomonlama majburiyat bo'lsada, huquqiy munosabatlarni keltirib chiqaruvchi bunday shartnomada bir yuridik maqsadga erishishga qaratilgan ikki tomonlama bitim hisoblanib, uning shartlarini muhokama qilishda ikkala tomon ham ishtirok etadi. Har bir subyekt shartnomaviy-huquqiy munosabatga kirishar ekan, birinchi navbatda shartnomada tuzayotganligi ishonchga asoslangan bo'lishi kerak. Shartnomaning tuzilish shakli haqida gap ketganda, shartnomada huquq va majburiyatlarni aniq belgilab olish va istisno hamda fors-major holatlarni aniq belgilab olish uchun shartnomaning yozma shakliga rioya etilishi

maqsadga muvofiq va lozim bo'ladi. Aynan qarz shartnomasining shakliga to'xtaladigan bo'lsak, Fuqarolik kodeksining 733moddasiga ko'ra, qarz shartnomasi fuqarolar o'rtasida, agar bu qarz summasi bazaviy hisoblash miqdori (uch yuz ming hozirgi kunda) ning o'n baravaridan ortiq bo'lsa, oddiy yozma shaklda tuzilishi shart. Agarda bir taraf fuqaro, boshqa taraf esa yuridik shaxs bo'lsa, shartnomada nazarda tutilgan qarz summasidan qat'iy nazar yozma shaklda tuzilishi shart. Bu holatda yuridik shaxs qarz oluvchimi yoki qarz beruvchi bo'ladimi degan savol tug'ilishi mumkin albatta.

Shartnomada yuridik shaxslar qarz beruvchi yoki qarz oluvchi bo'lib qatnashishidan qat'iy nazar oddiy yozma shaklga rioya etilishi lozim bo'ladi. Qarz shartnomasi tuzishda ko'p bo'lмаган summalarga nisbatan shartnomaning o'g'zaki tuzilishidan maqsad jismoniy shaxslarni qarz shartnomasini tuzishini osonlashtirish deb faraz qilsak bo'ladi. Qarz shartnomasi og'zaki ham tuzilishi mumkin albatta. Misol uchun fuqarolar orasidagi maishiy qarz, agar qarz summasi eng kam kish haqi ning o'n barobaridan kam bo'lsa, shartnoma og'zaki tuzilishi mumkin. Aynan qarz shartnomasining yozma shaklda tuzilishi shartligi haqida gapiradigan bo'lsak, qarz berish o'zi o'zaro ishonchga asoslanadi, chunki hech kim ishonmasdan turib qarz bera olmaydi. Hozirda qarz berishga foyda olish vositasi sifatida ham qarashimiz mumkin¹.

Endigi masala qarz shartnomasi tuzilgan bo'lsayu, lekin yozma shaklda tuzilishiga rioya etilmagan bo'lsa, qanday oqibatlarga olib kelishi haqida bat afsil to'xtalamiz. Shartnomaning yozma shakli qoidalariga quyidagi hollarda amal qilingan deb hisoblanadi: kelishuv mazmuni yoritilgan hujjat tuzilgan va bitim tuzuvchilar yoki ularning vakillari tomonidan imzolangan

¹ M.Abdusalomov va boshqalar. Fuqarolik huquqi. T.:2007. 334-bet.

bo'lsa, yoki hujjatlar almashinushi taraflar tomonidan amalga oshirilayotganligini aniqlash imkonini beruvchi pochta, telegraf, teletayp, elektron yoki boshqa aloqa vositalari orqali amalga oshirilgan bo'lsa².

Yuqoridagi elektron aloqa vositalari orqali hujjatlarni o'zaro ayirboshlash, agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, yozma shaklda tuzilgan bitimiga tenglashtiriladi. Shuningdek amaldagi Fuqarolik kodeksining 366-moddasi 5-qismiga muvofiq agar ofertani akseptlash uchun biror-bir shaxs olsa hamda shartnomada yuzasidan ma'lum bir harakatlarni amalga oshirsa aksept hisoblanadi. Bu jarayonda qarz beruvchini qarz oluvchining iltimosiga ko'ra, unga pul mablag'larini o'tkazib berishi yozma shaklga amal qilish deb hisoblanadi. Shuningdek, agar shartnomada tuzish uchun mol mulk topshirish zarur bo'lsa, shartnomada tegishli mol-mulk tuzilgan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanishi ham yozma shaklga amal qilish deb hisoblanadi³. Yuqoridagilarga to'xtalishimizdan maqsad shartnomada yozma shakliga rioya qilmaslik haqida chuqurroq tushunchaga ega bo'lishdan iborat. Faraz qiling shartnomada tuzishda shartnomani yozma shaklda tuzish qoidalari buzilgan, bu holat taraflar o'rtasida tuzilgan shartnomaning haqiqiy emasligiga olib keladi, agarda taraflar kelishuvida yoki qonunda to'g'ridan -to'g'ri ko'rsatilgan bo'lsa.

Shartnomaning yozma shakliga rioya qilmaslik, agarda taraflar kelishuvida yoki qonunda nazarda tutilmagan bo'lsa, bitimning haqiqiy emaligiga olib kelmaydi, va buning oqibatlari Fuqarolik kodeksining 109-moddasida keltirib o'tilgan. Ya'ni taraflar shartnomani yozma shaklga rioya etmasdan imzolab qo'ygan bo'lsalar, va bu yozma shaklga rioya qilmaslik shartnomada yoki qonunda ko'rsatilmagan bo'lsa, taraflarda huquq va

² Oqyulov. Rahmonqulov. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharx. T.:2013. 652-bet.

³ Oqyulov. Rahmonqulov. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharx. T.:2013. 652-bet.

majburiyatlar saqlanib qolaveradi. FK 109 -moddaga ko'ra, quyidagi protsessual oqibatlar kelib chiqishi mumkin bo'ladi: taraflar o'rtasida nizo chiqib qolsa, u holda ular bitim tuzilganligi, bajarilganligi va hokazolarni guvohlik ko'rsatmalaridan foydalanib tasdiqlash imkoniyatidan mahrum bo'ladilar. Ammo ular yozma, ashyoviy dalillardan yoki ekspert xulosalaridan foydalanishlari mumkin bo'ladi. Tomonlar o'rtasida qarz shartnomasi tuzildi, taraflarning huquq va majburiyatları belgilandi, bu holatda qarz shartnomasining yozma shaklda tuzilgan deb hisoblash asosi sifatida nimalarni bilishimiz kerak. Birinchi navbatda, shartnomada mazmuni yoritilgan hujjat tuzilganligi va u bitim tuzuvchilar yoki ularning vakillari tomonidan imzolanganligini asos deb bilishimiz mumkin bo'ladi.

Agarda bitim tuzuvchi nomidan vakil imzolasa, unda imzo qo'yish vakolatiga egaligi to'g'risida ishonchnomasi bo'lishi kerak. Qarz shartnomasining yozma shaklda tuzilganligining dalili sifatida quyidagilar taqdim qilinishi mumkin: qarz oluvchining tilxati, obligatsiyalar, schet-fakturalar, buxgalteriya uchun tomonlar tuzgan boshlang'ich hisobga olish hujjatlari, qarz berilganligini tasdiqlovchi, qarzdorning qarzni qaytarish muddatini cho'zish haqidagi yozma iltimosnomasi, telegramma, telekslar, barcha ish qog'zolari va bitim tuzilganligini yozma ravishda tasdiqlovchi barcha narsalar⁴.

Yuqoridagilarga batafsil to'xtaladigan bo'lsak, fuqarolik qonunchiligiga ko'ra, misol uchun tilxat qarz haqida kelishuvdan farqli ravishda, bir tomonninggina hohish-irodasini ifoda etadi. Ko'pchilikda savol tug'iladi: tilxat ham qarz shartnomasi ham qarz olinganlikni ifoda etadiku, yo'q aslida qarz shartnomasi tilxatga qaraganda afzal hisoblanadi. Chunki, agarda nizo

⁴ Oqyulov. Rahmonqulov. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharx. T.:2013. 653-bet.

kelib chiqqudek bo'lsa, qarz shartnomasi tomonlar o'rtasidagi qarz huquqiy munosabatni aniq ko'rsatib beradi. Tilxatda biror-kimga qarz berilganda, u qarz olganligi haqida tilxatni imzolashi orqali, o'z hohishi ifoda etadi. Misol uchun men shuncha summa miqdorda qarz oldim va bu summani ma'lum bir muddatda qaytaraman kabi. Tilxat ikki tomonning hohish-irodasini rad etmagan holda, ko'pchilik hollarda huquqiy munosabatlarning kelib chiqish asosini aniqlashga imkon bermaydi deyishimiz mumkin. Misol tariqasida ikki taraf o'rtasida qarz shartnomasi tuzildi va pul olganlik haqidagi tilxat qarz oluvchi tomonidan berildi, ushbu vaziyatda tilxat tomonlarning mulkiy munosabatlarida turli xil huquqiy munosabatlarni yuzaga keltirishi mumkin. O'z o'mida aytib o'tish kerakki, qarz shartnomasi esa tomonlar o'rtasida vujudga kelgan shartnoma huquqiy munosabatlarni turini aniq ko'rsatib beradi. Xullas, tilxat orqali qarz summasini tasdiqlanadi va yuqorida aytib o'tilgan og'zaki tartibda tuzlishi mumkin bo'lgan shartnomaning yozma dalili sifatida xizmat qiladi. Hozirda sud amaliyoti ham tilxatga o'g'zaki tuzilgan shartnomaning yozma dalili sifatida qaraydi. Modomiki, biz ma'lum bir subyektga qarz berar ekanmiz, birinchi navbatda unga berayotgan qarzimizni u o'zi imzolagan vaqtida qaytarishiga ishonch hosil qilishimiz kerak bo'ladi. Shuning uchun ham, agarda sudda tilxat borasida ish borganda bu masalaga alohida e'tibor berish tomonlar o'rtasida qarz munosabati bo'lganligi uchun talab etiladi. Sud taraflar o'rtasidagi nizoni hal qilishda avvalo qarz huquqiy munosabatini aniqlab olishi zarur bo'ladi. Tilxat esa qarz huquqiy munosabat turini aniq ko'rsatmaydi, qarz shartnomasi esa qarz huquqiy munosabat turini aniq ko'rsatib beradigan tomonlar o'rtasida tuzilgan kelishuvdir. Qarz shartnomasida ikkala taraf shartlashgan bo'ladi va sud amaliyotida nizo chiqadigan bo'lsa, shartnoma asosida ish ko'rish qiyinchilik tug'dirmaydi deb hisoblayman. Chet el tajribasiga yuzlanadigan bo'lsak, misol

uchun Agliyada kredit shartnomasi buzilgan taqdirda, qarz oluvchilar tomonidan qo'llaniladigan eng keng tarqalgan chora bu zararni qoplashdir. Bu kredit summasi va o'rnini bosuvchi kredit olish xarajatlari o'rtasidagi farqni, shuningdek, yo'qolgan imkoniyat yoki yo'qotilgan foydani o'z ichiga olishi mumkin. Shartnomaga rioya qilmaslik, ma'muriy jazoning ikki xil turi mavjud, ya'ni, qat'iy jarimalar va foizlarga asoslangan jarimalar, ularning ikkalasi ham soliq aktining ma'muriy talablariga rioya qilmaslik bilan bog'liq hisoblanar ekan. Chet el tajribasi yana shuni ko'rsatadiki, rasmiy kredit shartnomasi ikkala tomon uchun ham zarur bo'lib, har qanday pul o'zgarishidan oldin shartlar kelishilganligini ta'minlaydi.

Agar ish sudda tugasa, kredit shartnomasi xati ikkala tomonni himoya qiladi. Imzolangan kredit shartnomasi huquqiy masalalarni tez va qat'iy hal qilishi mumkin. Bu yuqorida bizning qonunchilikdagi jihatga o'xshaydi. Ya'ni, agar shartnoma mavjud bo'lsa, qarz huquqiy munosabat aniq va nizolar tez va qat'iy hal qilinadi.

Ozarbayjon Respublikasi Fuqarolik kodeksining 740-moddasiga muvofiq qarz shartnomasi og'zaki tuziladi hamda yozma shaklda ham tuzilishi mumkin. Bu jihat bizni qonunchilik bilan o'xhash, ularning qonunchiligida miqdor belgilanmagan ekan. Ushbu maqolani yozish orqali qarz huquqiy munosabatlarida belgilangan qoidalar, ya'ni uning shakliga rioya etmaslik, taraflardan biri shartnoma shartini buzishi yoki boshqa shu kabi holatlar kuzatilishi kabi holatlarni oldini olish uchun jiddiyroq jazo va jarima choralar qo'llanilishini taklif qilgan bo'lar edim.

Adabiyotlar/References:

1. Fuqarolik huquqi. Darslik. T.:2007-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharxlar.
3. Ozarbayjon Respublikasi Fuqarolik kodeksi.
4. Azimjon, I. (2022). ZARAR–YURIDIK SHAXS ISHTIROKCHILARI VA BOSHQARUV ORGANLARI FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIGINING ZARURIY SHARTI SIFATIDA.
5. O'G'Li, A. A. M. (2022). KORPORATSIYA USTAV KAPITALI FUNKSIYALARI VA UNGA OID MILLIY QONUNCHILIK NORMALARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. *Academic research in educational sciences*, 3(8), 109-113.
6. Ibrohimov, A. A. O., Koryogdiyev, B. U. O., & Tojiboyev, S. Z. (2022). KORPORATIV NIQOBLARNI OLIB TASHLASH KONSEPSIYASI VA UNI O'ZBEKISTON KORPORATIV HUQUQIDA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 1068-1082.
7. Ibrohimov, A. A. M. O. G. L., & Nечаева, Е. В. (2022). XALQARO INVESTITSIYA HUQUQIDA MILLIY REJIM VA ENG QULAY SHARTLAR REJIMI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(2), 414-425.
8. Иброҳимов, А. А. Ў. (2021). КОРПОРАЦИЯНИ БОШҚАРИШДА ФИДУЦИАР МАЖБУРИЯТЛАР ВА УЛАРНИ ЎЗБЕКИСТОНДА ҚЎЛЛАШ ИМКОНИЯТЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 841-853.
9. Ахроркулов А. НОТИЖОРАТ ТАШКИЛОТЛАРИ ТҮГРИСИДАГИ ҚОНУНЧИЛИКНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 6. – С. 893-902.

10. Гулямов С., Ахрорқұлов А. НОТИЖОРАТ ТАШКИЛОТЛАР ФАОЛИЯТИНИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ: МИЛЛИЙ ВА ХОРИЖИЙ ТАЖРИБА //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 5. – С. 1029-1041.